



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**No1**  
MAXSUS SON



## BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2026**



## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Bosh muharrir:

**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

### Bosh muharrir o'rinbosari:

**Karimov Norboy G'aniyevich**

### Muharrir:

**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

*Elektron nashr. 70 sahifa.  
2026-yil yanvar*

### Tahrir hay'ati:

**Salimov Oqil Umrzoqovich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich**, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Rae Kvon Chung**, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
**Osman Mesten**, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
**Axmedov Durbek Kudratillayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Sayfullo Normatovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Maxmudov Nosir**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Samadov Asqarjon Nishonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Axmedov Ikrom Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Hakimov Nazar Hakimovich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
**Ali Konak (Ali Ko'nak)**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
**Cham Tat Huei**, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
**Utayev Uktam Choriyevich**, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
**Ochilov Farkhod**, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
**Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Axmedov Javohir Jamolovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
**Djudi Smetana**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Krissi Lyuis**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
**Glazova Marina Viktorovna**, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Sevil Piriyeva Karaman**, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li**, TDIU ITI departamenti rahbari  
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.  
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna**, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.  
**Ikramov Murod Akramovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

**Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjajevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow))  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.  
**Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Ikramov Murod Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

### Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Geografiya fanlari doktori, professori  
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent  
**Zebo Kuldasheva**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

### Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher  
**Komilova Nilufar Karshiboyevna**, Doctor of Geographical Sciences, Professor  
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor  
**Zebo Kuldasheva**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

### Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

EKSPORT VA IMPORT OPERATSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH: TAHLIL VA AUDIT .....	10
Urinboev Bexruz Zoir o'g'li, Misirov Asliddin Mamasobirovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI .....	15
Jabborov Muhammad Sanjarovich, Djurayeva Dilnoza Davron qizi, Song Jichung	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH OMILLARI VA MAKROIQTISODIY TA'SIRI.....	21
Xoliqulova Ra'no Sherali qizi, Berdiyev Nazirjon Abduvoseyevich	
КУЛЬТУРНЫЙ ТУРИЗМ КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	25
Ахтамов Огабек Улугбек угли, Фахритдинов Амриддин Фазлитдинович, Саидмуродов Жонибек Жахонгирович, Саттарова Зухра Илхомовна	
DAVLATNING YASHIL INVESTITSIYALAR ORQALI IQTISODIYOTNI TARTIBGA SOLISH SIYOSATI.....	31
Sharipboyev Hasanboy Marks o'g'li, Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI O'SISHIDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING STRATEGIK O'RNI: PREZIDENT MUROJAATNOMASI ASOSIDA ILMIY TAHLIL .....	35
Ma'rupov Zahiriddin Feruzovich, Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAGI BIZNES-SUBYEKTLARINI BAHOLASH: ESG MEZONLARI ASOSIDA BARQARORLIK INDEKSINI ISHLAB CHIQISH VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI .....	39
Po'latov Orzubek Fazliddin o'g'li, Haqnazarova Yulduz Juraqulovna	
ФИНАНСОВЫЕ ИНСТИТУТЫ КАК ФАКТОР МОДЕРНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	43
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовевна	
AKSIZ SOLIG'I TUSHUMLARINING O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BUDJET DAROMADLARIDAGI ULUSHI: 2020–2024-YILLAR BO'YICHA IQTISODIY TAHLILI .....	49
Karimov Diyorbek, Abdurashidov Abdusamad	
O'ZBEKISTON SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARINING SOLIQ TUSHUMLARI VA FUQAROLARNING SOLIQ INTIZOMIGA TA'SIRI .....	55
Maxkamova Dildora Shavkat qizi, Ergashev Shavkat Maxkamovich	
ИНТЕГРАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В МАРКЕТИНГОВЫЕ КОММУНИКАЦИИ КОМПАНИЙ.....	59
Рахимжонов Аброр Марифжанович, Кахрамонов Хуршид Шухратович	
BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF .....	66
O'ktamova Shaxruza Abror qizi, Norboyev Odil Abrayevich	



# BOZOR IQTISODIYOTIDA UMUMIY TALAB VA UMUMIY TAKLIF

## O'ktamova Shaxruza Abror qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,  
Iqtisodiyot fakulteti, IRB-83/25 guruh talabasi  
oktamovashaxruza4@gmail.com

Ilmiy rahbar:

## Norboyev Odil Abrayevich

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida dotsenti  
[odilnorboyev364@gmail.com](mailto:odilnorboyev364@gmail.com)

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bozor iqtisodiyoti sharoitida yalpi talab va yalpi taklifning iqtisodiy mohiyati, ularning shakllanish mexanizmlari hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni tahlil qilinadi. Yalpi talab va yalpi taklif muvozanatining iqtisodiy o'sish, inflyatsiya hamda bandlik darajasiga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, ushbu sohada mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** bozor iqtisodiyoti, yalpi talab, yalpi taklif, makroiqtisodiy muvozanat, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya, bandlik, davlat iqtisodiy siyosati.

**Abstract:** This article analyzes the economic essence of aggregate demand and aggregate supply in a market economy, their formation mechanisms, and their role in ensuring macroeconomic stability. The impact of the balance between aggregate demand and aggregate supply on economic growth, inflation, and employment is examined. In addition, existing problems in this field are identified, and practical recommendations for addressing them are proposed.

**Key words:** market economy, aggregate demand, aggregate supply, macroeconomic equilibrium, economic growth, inflation, employment, government economic policy.

**Аннотация:** В статье рассматриваются экономическая сущность совокупного спроса и совокупного предложения в условиях рыночной экономики, механизмы их формирования, а также их роль в обеспечении макроэкономической стабильности. Проанализировано влияние равновесия совокупного спроса и совокупного предложения на экономический рост, инфляцию и уровень занятости. Кроме того, выявлены существующие проблемы и предложены практические рекомендации по их решению.

**Ключевые слова:** рыночная экономика, совокупный спрос, совокупное предложение, макроэкономическое равновесие, экономический рост, инфляция, занятость, государственная экономическая политика.

## KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi murakkab hamda o'zaro bog'liq jarayonlar orqali amalga oshadi. Ushbu jarayonlarning markazida yalpi talab va yalpi taklif tushunchalari turadi. Aynan shu ikki makroiqtisodiy ko'rsatkich orqali iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmi, narxlar darajasi, bandlik holati hamda aholi farovonligi shakllanadi. Shu sababli yalpi talab va yalpi taklifni o'rganish makroiqtisodiyot fanining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yalpi talab va yalpi taklif bozor mexanizmining muhim elementlari bo'lib, ular iqtisodiy resurslardan samarali foydalanishni ta'minlashga xizmat qiladi. Iqtisodiyotda ushbu ko'rsatkichlar muvozanatda bo'lgan sharoitda barqaror iqtisodiy o'sish, past inflyatsiya va yuqori bandlik darajasi kuzatiladi. Aksincha, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi nomutanosiblik iqtisodiy inqirozlar, narxlarning keskin oshishi yoki ishlab chiqarish hajmining qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida davlatlar oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdir. Globalizatsiya, texnologik taraqqiyot, tashqi iqtisodiy



aloqalarning kengayishi hamda moliyaviy bozorlarning rivojlanishi ushbu ko'rsatkichlarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda bozor iqtisodiyotining to'liq shakllanishi jarayonida yalpi talab va yalpi taklifni tartibga solish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda yalpi talabni rag'batlantirish yoki yalpi taklifni kengaytirish orqali iqtisodiy muammolarni bartaraf etish amaliyoti keng qo'llanilmoqda. Shu sababli mazkur maqolada bozor iqtisodiyotida yalpi talab va yalpi taklif tushunchalarining mazmunini chuqur tahlil qilish, ularning o'zaro bog'liqligini ochib berish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini yoritish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yalpi talab va yalpi taklif kategoriyalari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi. Davlat tomonidan olib borilayotgan fiskal va monetar siyosat choralarning samaradorligi ko'p jihatdan aynan ushbu ikki ko'rsatkichning holatiga bog'liq bo'ladi. Masalan, soliq stavkalarining pasaytirilishi yoki davlat xarajatlarining oshirilishi yalpi talabni rag'batlantirsa, ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, innovatsiyalarni joriy etish va infratuzilmani rivojlantirish yalpi taklifni kengaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, yalpi talab va yalpi taklifning o'zgarishlari iqtisodiyotdagi siklik tebranishlar bilan chambarchas bog'liq. Iqtisodiy o'sish davrlarida talabning oshishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib kelsa, iqtisodiy pasayish davrlarida talabning qisqarishi ishlab chiqarishning kamayishiga sabab bo'ladi. Ushbu jarayonlarni to'g'ri boshqarish orqali davlat iqtisodiy inqirozlarning salbiy oqibatlarini yumshatishi mumkin.

Shuningdek, yalpi talab va yalpi taklifning hududiy hamda tarmoq xususiyatlarini hisobga olish ham muhim hisoblanadi. Turli tarmoqlarda ishlab chiqarish imkoniyatlari va talab hajmi bir xil bo'lmagani sababli, iqtisodiy siyosat differensial yondashuvni talab etadi. Ayniqsa, sanoat, qishloq xo'jaligi va xizmatlar sohasida yalpi talab hamda yalpi taklifning o'ziga xos jihatlari mavjud.

Shu jihatdan qaralganda, bozor iqtisodiyotida yalpi talab va yalpi taklifni o'rganish nafaqat nazariy bilimlarni boyitadi, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu mavzuni chuqur tahlil qilish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va aholining turmush darajasini oshirish yo'llarini aniqlash mumkin.

## MAVZUGA DOIR ADABIYOTLAR SHARHI

Bozor iqtisodiyotida umumiy (yalpi) talab va umumiy (yalpi) taklif (AD–AS) tushunchalari makroiqtisodiy tahlilning asosiy kategoriyalari hisoblanadi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyotda narxlar darajasi, ishlab chiqarish hajmi va bandlikning shakllanish mexanizmini tushuntirishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ilmiy adabiyotlarda umumiy talab va taklif muvozanati iqtisodiy barqarorlikka ta'sir etuvchi fundamental omil sifatida keng yoritilgan.

Klassik maktab vakillari (A. Smit, D. Rikardo, J.B. Sey) qarashlarida iqtisodiyotning o'z-o'zini tartibga solish xususiyati asosiy o'rinni egallaydi. Ularning yondashuviga ko'ra, bozor mexanizmi resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlab, ishlab chiqarishning tabiiy hajmiga mos ravishda muvozanatni tiklaydi. Klassik qarashlarda yalpi taklif ustuvor bo'lib, uzoq muddatda ishlab chiqarish hajmi narxlar darajasiga emas, balki ishlab chiqarish resurslari va mehnat unumdorligiga bog'liq deb talqin qilinadi. Shuning uchun klassik maktabda yalpi taklif egri chizig'i uzoq muddatda vertikal shaklda tasvirlanadi.

Biroq XX-asr boshidagi iqtisodiy inqirozlar va Buyuk depressiya sharoitida klassik nazariyaning amaliy cheklanganligi namoyon bo'ldi. Shu asosda J.M. Keyns tomonidan ishlab chiqilgan yondashuvda iqtisodiy sikllarni izohlashda yalpi talabning roli birinchi o'ringa chiqdi. Keynschilik nazariyasiga ko'ra, qisqa muddatda iqtisodiyotda resurslar to'liq band bo'lmashligi mumkin va bunday holatda ishlab chiqarish hajmi talab yetishmasligi sababli pasayadi. Keyns iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarini yalpi talabning tarkibiy elementlari sifatida baholab, davlat aralashuvi orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish zarurligini asoslab bergan. Aynan shu yondashuv AD–AS modelining amaliy qo'llanilishiga kuchli turtki bo'lib xizmat qilgan.

Zamonaviy makroiqtisodiy adabiyotlarda AD–AS modeli iqtisodiy o'sish va narxlar dinamikasini tushuntirish bilan birga, inflyatsiya va ishsizlik muammolarini izohlash uchun ham qo'llaniladi. Xususan, iqtisodiy tizimda yalpi talabning keskin oshishi ishlab chiqarish hajmini vaqtincha oshirishi mumkin, biroq resurslar cheklangan sharoitda bu jarayon narxlar darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Aksincha, talabning pasayishi ishlab chiqarishning qisqarishiga va bandlikning pasayishiga sabab bo'ladi. Shu jihatdan AD–AS muvozanati makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda markaziy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ham umumiy talab va umumiy taklifning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Jumladan, Shodmonov va G'afurov (2020) umumiy talab va taklifni makroiqtisodiy muvozanatning asosiy mexanizmi sifatida izohlab, narxlar darajasi va real ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'liqlikni batafsil tahlil qiladi. Mualliflar iqtisodiyotda barqarorlikka erishishda fiskal va monetar siyosatning muvofiqlashtirilgan holda olib borilishi zarurligini ta'kidlaydi. Abdug'aniyev (2019) esa AD–AS



modelini iqtisodiy sikllarni tushuntiruvchi amaliy instrument sifatida baholab, yalpi talabni rag'batlantirish va yalpi taklifni kengaytirish orqali iqtisodiy muammolarni hal etish mexanizmlarini ko'rsatadi.

Xodjaye (2021) tadqiqotlarida yalpi talab–taklif muvozanatining buzilishi inflyatsiya va ishsizlik darajasining oshishiga olib kelishi, shu bois davlat iqtisodiy siyosati ushbu nomutanosibliklarni yumshatishda muhim rol o'ynashi ilmiy jihatdan asoslangan. Ishmuhammedov va hammualliflar (2018) ham yalpi talab va taklif o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy rivojlanishning barqaror yo'nalishini belgilashini ta'kidlab, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'zgarishi orqali mazkur muvozanatni tahlil qilish usullarini yoritadi.

Xalqaro ilmiy manbalarda yalpi talab va taklifning iqtisodiy siyosat bilan bog'liqligi, ayniqsa fiskal va monetar instrumentlar orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash masalasi muhim yo'nalish sifatida qaraladi. Zamonaviy iqtisodiy tahlil doirasida AD–AS modeli iqtisodiy shoklar (energiya narxlarining o'zgarishi, tashqi savdo cheklovlar, global inqirozlar)ning ichki makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini izohlashda ham samarali qo'llaniladi. Shu sababli, yalpi talab va taklif bo'yicha tahlillar faqat nazariy emas, balki amaliy iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ham muhim ilmiy asos hisoblanadi.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, yalpi talab va yalpi taklif bozor iqtisodiyotida iqtisodiy jarayonlarning umumiy yo'nalishini belgilovchi asosiy mexanizmdir. Iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va bandlik kabi muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar aynan AD–AS muvozanati orqali shakllanadi. Shu bois ushbu mavzuni ilmiy asosda tahlil qilish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va samarali davlat siyosatini ishlab chiqishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot bozor iqtisodiyoti sharoitida yalpi (umumiy) talab va yalpi (umumiy) taklif tushunchalarini o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda ilmiy bilishning bir qator nazariy hamda amaliy usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida yalpi talab va yalpi taklifning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri, ularning o'zaro bog'liqligi hamda muvozanat holatiga erishish mexanizmlari chuqur tahlil qilindi.

Tadqiqotning nazariy asosini klassik va keynschilik iqtisodiy nazariyalar tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar asosida yalpi talab va yalpi taklifning iqtisodiy mazmuni, ularning shakllanish omillari hamda iqtisodiy jarayonlarga ta'siri tizimli ravishda o'rganildi. Shu bilan birga, zamonaviy makroiqtisodiy modellar yordamida mazkur ko'rsatkichlarning amaliy ahamiyati baholandi.

Tadqiqotda tahlil va sintez usullaridan foydalanilib, yalpi talab va yalpi taklifni tashkil etuvchi tarkibiy qismlar alohida o'rganildi hamda ularning o'zaro bog'liqligi umumlashtirildi. Induksiya va deduksiya usullari orqali umumiy iqtisodiy qonuniyatlardan aniq xulosalar chiqarildi. Taqqoslash usuli yordamida turli davrlarda hamda turli iqtisodiy sharoitlarda yalpi talab va yalpi taklif ko'rsatkichlarining o'zgarishlari solishtirildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida statistik tahlil usullari qo'llanildi. Rasmiy statistik ma'lumotlar asosida yalpi talab va yalpi taklifning iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va bandlik darajasi bilan bog'liqligi o'rganildi. Grafik va jadval usullari yordamida olingan natijalar vizual tarzda ifodalandi hamda tahlil qilindi.

Bundan tashqari, tadqiqotda mantiqiy yondashuv va ilmiy abstraksiyalash usullaridan foydalanilib, yalpi talab va yalpi taklifga ta'sir etuvchi asosiy omillar ajratib ko'rsatildi. Tadqiqot natijalari asosida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot doirasida bozor iqtisodiyoti sharoitida yalpi (umumiy) talab va yalpi (umumiy) taklifning shakllanishi hamda ularning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'siri chuqur tahlil qilindi. Tahlil jarayonida yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro nisbatlari iqtisodiy o'sish, inflyatsiya hamda bandlik darajasi bilan bevosita bog'liqligi aniqlandi.

Birinchi navbatda, yalpi talabning tarkibiy qismlarining iqtisodiyotga ta'siri o'rganildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, aholi iste'mol xarajatlarining oshishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib keladi. Investitsiyalar hajmining ortishi esa ishlab chiqarish quvvatlarini rivojlantirib, yalpi taklifning uzoq muddatda o'sishini ta'minlaydi. Davlat xarajatlarining ko'payishi qisqa muddatda yalpi talabni rag'batlantirsa-da, ularning samarasiz yo'naltirilishi inflyatsion bosimni kuchaytirishi mumkinligi aniqlandi.

Yalpi taklif bo'yicha olib borilgan tahlillar ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish darajasi hamda texnologik taraqqiyotning muhim ahamiyatga ega ekanini ko'rsatdi. Mehnat unumdorligining oshishi va innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi yalpi taklif egri chizig'ining o'ng tomonga siljishiga olib keladi. Natijada ishlab chiqarish hajmi ortib, narxlar darajasi barqarorlashadi.

Shuningdek, yalpi talab va yalpi taklif o'rtasidagi muvozanatning buzilishi iqtisodiy beqarorlikka sabab bo'lishi aniqlanib, bunday holatlarda inflyatsiya yoki ishsizlik darajasining oshishi kuzatiladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, fiskal hamda monetar siyosat vositalaridan oqilona foydalanish orqali ushbu nomutanosibliklarni yumshatish mumkin.



Olingan natijalar yalpi talab va yalpi taklifni uyg'unlashtirish iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlangan qonuniyatlar asosida ishlab chiqilgan takliflar iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda bozor mexanizmlarining samarali ishlashiga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, bozor iqtisodiyotida umumiy talab va umumiy taklif iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim omillar hisoblanadi. Umumiy talabning oshishi iqtisodiy o'sish va ishlab chiqarish hajmining ortishiga olib keladi, biroq u nazoratsiz ravishda oshsa, inflyatsion bosim kuchayadi. Umumiy taklif esa ishlab chiqarish imkoniyatlari, texnologiya darajasi hamda resurslardan samarali foydalanish bilan bog'liq bo'lib, uzoq muddatli barqaror iqtisodiy rivojlanish uchun mustahkam asos yaratadi.

Umumiy talab va umumiy taklif o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy o'sish, inflyatsiya hamda bandlik darajasini belgilaydi. Nomutanosiblik yuzaga kelgan holatlarda esa iqtisodiy beqarorlik kuchayadi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, davlat tomonidan fiskal va monetar siyosat vositalaridan oqilona foydalanish bu nomutanosibliklarni yumshatishda, iqtisodiy jarayonlarni barqarorlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, umumiy talab va umumiy taklifning turli tarmoqlar hamda hududlar kesimidagi farqlari iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishda albatta inobatga olinishi lozim. Chunki turli sohalarda ishlab chiqarish quvvatlari va talab darajasi bir xil emasligi rag'batlantirish choralarini differensiallashtirish zaruratini yuzaga keltiradi.

### Takliflar

1. Iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish maqsadida ishlab chiqarish sohasini qo'llab-quvvatlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda iqtisodiy islohotlarni izchil davom ettirish lozim.

2. Iste'molni rag'batlantirish orqali ichki talabni kengaytirish va iqtisodiy faollikni oshirish uchun aholining real daromadlarini ko'paytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish zarur.

3. Inflyatsiyani nazorat qilish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash uchun samarali monetar va fiskal siyosat uyg'unligini kuchaytirish tavsiya etiladi.

4. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, raqobat muhitini kengaytirish hamda tarmoqlar kesimida differensial yondashuvni tatbiq etish orqali bozor muvozanatini ta'minlash mumkin.

5. Umumiy talab va umumiy taklifdagi o'zgarishlarni doimiy monitoring qilish, statistik ma'lumotlar asosida tahlil olib borish hamda muvozanatni saqlash uchun tezkor choralar ko'rish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Iqtisodiy rivojlanish bo'yicha statistik ma'lumotlar. — Toshkent, 2024.
2. Journal of Economic Perspectives. Iqtisodiy tahlil bo'yicha zamonaviy maqolalar. — 2019–2023.
3. Shodmonov Sh.Sh., G'afurov U.V. Makroiqtisodiyot. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
4. Abdug'aniyev A. Makroiqtisodiy nazariya va AD–AS modeli. — Toshkent: Fan, 2019.
5. Xodjayev N.M. Makroiqtisodiy muvozanat va umumiy talab–taklif. — Toshkent: Fan, 2021.
6. Ishmuhamedov A.E., Djumayev Z.A., Jumayev Q.X. Makroiqtisodiyot. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. Elektron manba: <https://namdu.uz/media/Books/pdf/Makroiqtisodiyot.pdf>
7. Mirzayev B.B. Davlatning fiskal va monetar siyosati. — Toshkent: Fan, 2020.
8. Abdurahmonov Q.X. Bandlik va ishsizlik muammolari. — Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
9. G'ulomov S.S. Inflyatsiya va makroiqtisodiy barqarorlik. — Toshkent: Fan, 2018.
10. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar to'plami. — Toshkent, 2023. Elektron manba: <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/macro>
11. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Makroiqtisodiy tahlil va prognozlar. — Toshkent, 2022. Elektron manbalar: <https://www.mf.uz/uz/economy-analysis> <https://www.mineconomy.uz/uz/info/makroiqtisodiyot>



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

### 1-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>